



STATE AWARD NAMED AFTER ZULFIA: LAUREATES (IN THE CASE OF JIZZAKH REGION)

Nargiza Ismatullayevna Bobobekova
Master's student
Uzbekistan
E-mail: ismatullayeva88@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Award, Zulfiya State Prize, support of women, education, science, literature, culture, art, sports, information technologies, State grant

Received: 10.09.24

Accepted: 12.09.24

Published: 14.09.24

Abstract: In this article, attention to women, opportunities and privileges created for them, including the establishment of the State Award named after Zulfia, its legal basis, the purpose of its introduction, and the expected results are studied based on the reforms being carried out in Uzbekistan. The article also mentions the achievements of women in the development of education, science, literature, culture, art, sports, information technologies and public activities, and the exemplary activities of their peers in the direction of the rise of national independence ideas and belief in cultural and spiritual values. analyzed on the example of women of the region. In which directions there are achievements, existing problems and ways to eliminate them are described.

ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI : SOVRINDORLARI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Nargiza Ismatullayevna Bobobekova
Magistratura talabasi
O'zbekiston
E-mail: ismatullayeva88@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mukofot, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lif, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport sohalari, axborot texnologiyalari, Davlat granti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar asosida xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor, ularga yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlar, jumladan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etilishi,

uning huquqiy asoslari, joriy etishdan maqsad, kutulayotgan natijalar o‘rganilgan. Shuningdek maqlolada ayollarning ta’lim, fan, adabiyot, madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalarini rivojlantirish va jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlari, tengdoshlarining milliy istiqlol g‘oyalari va madaniy-ma’naviy qadriyatlarga e’tiqodining yuksalishi yo‘lidagi ibratli faoliyati Jizzax viloyati xotin-qizlari misolida tahlil etilgan. Qaysi yo‘nalishlarda yutuqlarimiz mavjudligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРЕМИЯ ИМЕНИ ЗУЛЬФИИ: ЛАУРЕАТЫ (НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ)

Наргиза Исматуллаевна Бобобекова

студент магистратуры

Узбекистан

E-mail: ismatullayeva88@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Премия, Зульфии, Государственная премия, Поддержка женщин, образования, науки, литературы, культуры, искусства, спорта, информационных технологий, Государственный грант

Аннотация: В данной статье на примере реформ, проводимых в Узбекистан. В статье также упоминаются достижения женщин в развитии образования, науки, литературы, культуры, искусства, спорта, информационных технологий и общественной деятельности, а также образцовая деятельность их сверстников в направлении подъема идей национальной независимости и веры в культурные и духовные ценности проанализированы на примере женщин региона. По каким направлениям имеются достижения, описаны существующие проблемы и пути их устранения.

KIRISH

Bugungu integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan tarixiy bir davrda ayollarning jamiyat hayotida tutgan o‘rnini, ijtimoiy moslashuvi, gender tengligi, ayollarga nisbatan “uy zo‘ravonligi”[1] ning ortib borishi, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish muammosi dolzARB ahamiyat kasb etmoqda.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “. har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning ayollarga bo‘lgan munosabati va g‘amxo‘rliqi bilan belgilanadi”. [2]

ASOSIY QISM

Yangilanayotgan O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bugungi o‘zgarish va yangiliklarga boy kechayotgan davr barchamizning oldimizga yangi-yangi talablarni qo‘ymoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni ro‘yobga chiqishida aholimizning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etuvchi xotin-qizlarimizning munosib hissasi bor. Shu bois yurtimizda ayollarni qadrlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Xotin-qizlarimiz uchun o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ularni qo‘llab-quvvatlash davlatimizning taraqqiyot dasturlariga kiritilgan.

Jumladan, ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko‘rsatish, ozod va obod yurtimiz kelajagi bo‘lgan har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o‘rnini yana bir bor e’tirof etish, barkamol, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning ta’lim, fan, adabiyot, madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalarini rivojlantirish va jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlari, tengdoshlarining milliy istiqlol g‘oyalari va madaniy-ma’naviy qadriyatlarga e’tiqodining yuksalishi yo‘lidagi ibratli faoliyati, keng ko‘lamli islohotlarni jadallashtirishdagi faol ishtirokini rag‘batlantirish maqsadida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis qilingan. Ushbu mukofot O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida" gi PF-2326-sonli farmoni [3] asosida joriy etilgan bo‘lib, mukofat maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida a’lo xulqi, zukkoligi, donoligi, tashabbuskorligi, o‘qishdagi muvaffaqiyatlari bilan alohida iste’dodini namoyon qilib ta’lim olayotgan, istiqlol g‘oyalarini amalga oshirish yo‘lida astoydil mehnat qilayotgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, san’at, sport fan, ta’lim, jamoatchilik faoliyatida faolligi uchun beriladi. Ushbu farmon to‘ldirilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli farmonida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’lim, fan, adabiyot, madaniyat, san’at, sport va jamoatchilik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri vakilalariga 2 nafardan har yili Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida taqdim etiladi.[4]

Ma’lumki mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli sohalarda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy hayotda faollik ko‘rsatayotgan xotin-qizlarni munosib rag‘batlantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Xotin-qizlar o‘rtasida raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning axborot texnologiyalari sohasidagi, shu jumladan IT xizmatlarini ko‘rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishdagi ulushini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagи “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son qarori [5]ijrosini ta’minalash hamda axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarning munosib taqdirlab borilishini yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-2326-son farmoniga axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish haqida 2024 yil 7 fevralda PF-34-sonli[6] farmoni imzolandi. Ushbu farmonga muvofiq, axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarni Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlab borish, bilan bog‘liq xarajatlarning moliyalashtirish manbalarini belgilandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-2326-son Farmoniga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, Muqaddimadagi “Yoshlarniong adabiyot, san’at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi” so‘zлari“yoshlarning, ta’lim fan, adabiyot, madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalarini rivojlantirish va jamoatchilik faoliyatidagi” so‘zлari almashtirildi 22- b) 4-xatboshisidagi “umumi o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari” so‘zлari “umumi o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarining Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari” so‘zлari bilan o‘zgartirildi.[7]

Mukofot Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ikkitadan vakillariga jami 28 nafarga beriladi. Mukofotning har biri eng kam oylik ish haqqining 50 baravari miqdorida tayinlangan.[8] Ushbu mukofot sohibalarining yana biri yuqori imtiyozlaridan biri umumi o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarining Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari bo‘lgan o‘quvchilari oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga, bakalavriat talabalari esa oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga tegishli yo‘nalish va ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinishidir. Bu imtiyoz shubhaziz iqtidorli qizlarimizga berilgan yuksak ishonchdir.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lganlarga 2000 yildan to bugungi kungacha tantanali vaziyatda sovrindorlik yorliqlari va nishonlar topshirilib kelinmoqda. Jumladan, Prezidentrimiz joriy yilda Shavkat Mirziyoev 8-mart munosabati bilan davlat va jamiyat hayotida faol bo‘lgan 28 nafar xotin-qizni Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risidagi qarorni imzoladi.[9] Bu qizlarimiz orasida Jizzax viloyatining iqtidorli qizlari borligi quvonarli holatdir. 2024 yil 8 mart sanasida tantanali ravishda taqdirlangan qizlarimiz — O‘zbekiston Milliy universitetining qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

ixtisosligi bo'yicha mustaqil tadqiqotchisi Chilmurzaeva Maftuna Abdumannon qizi hamda O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali psixologiya fakulteti iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi Xojiboqieva Niginaxon O'tkir qizi yosh qizlarimiz faxriga aylandi.

Shu o'rinda, 2000-2024 yillar oralig'ga nazar tashlasak. 24 yil davomida viloyatimizning mukofot sohibalari bo'lgan 32 nafar qizlar faoliyatini quyidagi jadval asosida tahlil etsak.

| T/r | FIO | Necha yoshda mukofotga tavsiya etilgan | Qaysi yo'nalishda, qaysi sohada, mukofotga tavsiya etilgan | Nechanchi yil | Bugungi kundagi faoliyati |
|-----|---------------------------------------|--|--|---------------|---|
| 1 | Murodova Sayyora Sobirovna | 25 yosh | Fa'n yo'nalishi biotexnologiya sohasi bo'yicha | 2000 yil | O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali biologiya fanlari doktori, kafedra professori |
| 2 | Rajabova Dilfuza Shavkatovna | 17 yosh | Fa'n yo'nalishi | 2001 yil | AQSh davlati Nyu-York shtati Temple universiteti aspiranti |
| 3 | Mo'minova Shohida Yakubjonovna | 18 yosh | Fa'n yo'nalishi | 2003 yil | Farzand tarbiyasi bilan |
| 4 | Muxtororva Gulruh Assatullaevna | 17 yosh | Fa'n yo'nalishi | 2003 yil | Toshkent shahar Shayhontohur tumani Ibn Sino nomli 1-son shahar klinik shifoxonasida Kardiolog bo'lib faoliyat yuritmoqda |
| 5 | Mirzaeva (Damanova) Shohida Mars qizi | 17 yosh | Ta'lim yo'nalishi | 2004 yil | Jizzax viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining 1 o'rinbosari |
| 6 | Dogan (Bahromova) Sabohat Rustam | 21 yosh | Ta'lim yo'nalishi. Musiqa sohasida | 2005 yil | Turkiya Respublikasiga turmushga chiqqan Istanbuldag'i davlat maktabida musiqa fani o'qituvchi |
| 7 | Mahkamova Dilfuza Jo'raqulovna | 18 yosh | Adabiyot yo'nalishi. She'riyat | 2006 yil | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy vatanparvarlik bo'limi mutaxassisi |
| 8 | To'ychieva Nasiba Omonliq qizi | 17 yosh | Adabiyot yo'nalishi. She'riyat | 2007 yil | Germaniya federativ Respublikasi Duzeldorf shahridagi firmada faoliyat yuritmoqda |
| 9 | Hamraqulova Yulduz Oybekovna | 19 yosh | Madaniyat yo'nalishi | 2008 yil | Xalqaro shaxmat akademiyasi murabbiysi. Jizzax shahar 22-maktabda shaxmatdan dasr berib kelmoqda |
| 10 | Yakubova Ma'mura Sayfullaevna | 18 yosh | Adabiyot yo'nalishi. She'riyat | 2009 yil | Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati ma'naviy |

| | | | | | |
|----|--|---------|-------------------------------------|----------|--|
| | | | | | ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari. |
| 11 | Abdurahmonova Iroda Xayrullaevna | 20 yosh | Madaniyat yo'nalishi. Sport | 2010 yil | Jizzax Olimpiya zaxiralari kollejida DZYU-DO bo'yicha murabbbiy |
| 12 | Zoirova Yulduz G'ofurovna | 17 yosh | Adabiyot yo'nalishi. She'riyat | 2011 yil | Alisher Naviy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti masofaviy ta'lim kafedrasи katta o'qituvchisi, filolgiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |
| 13 | Isroilova Baxtijon Bahromjon qizi | 18 yosh | Fa'n yo'nalishi | 2012 yil | Jaxon tillari universiteti xorijiy tillar fakulteti doktaranti |
| 14 | Matmurodova Iroda Baxtiyor qizi | 22 yosh | Madaniyat yo'nalishi. Sport | 2013-yil | Jizzax davlat Pedagogika instituti "Jismoniy tarbiya" fakultetida o'qituvchi |
| 15 | Xolbekova Yoqutxon Nazarqosim qizi | 19 yosh | Madaniyat yo'nalishi. Sport | 2014-yil | O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va Sport universiteti magistraturasini tamomladi Sport bo'yicha paraosiyo o'yinlari championi |
| 16 | Rashidova (Shavkatova) Laziza Sherzod qizi | 16 yosh | Adabiyot yo'nalishi | 2015-yil | Uy bekasi |
| 17 | Raimqulova Moxigul Dadajon qizi | 19 yosh | Adabiyot. Nazm yo'nalishi | 2016-yil | Jizzax shahridagi IV akademik litseyida o'qituvchisi (Tug'ruq ta'tilda) |
| 18 | Abdurazzoqova Nigina Voxob qizi | 18 yosh | San'at. Tasviriy san'at | 2017-yil | Jizzax ixtisoslashtirilgan san'at mакtabida o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritmoqda |
| 19 | Abdullaeva Visola Ubaydulla qizi | 18 yosh | Madaniyat yo'nalishi | 2018-yil | O'zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich talabasi |
| 20 | Elmirzaeva (Shokirova) Aziza Ilhom qizi | 17 yosh | Adabiyot yo'nalishi nazm | 2018-yil | Toshkent davlat O'zbek tili adabiyoti universiteti 1 bosqich magistranti Yoshlar ishlar agentligi "Ibrat farzandlari loyihasi" turk tili o'qituvchi, |
| 21 | Umarova Sabina | 20 yosh | Sport yo'nalishi yengil atletika | 2019-yil | Jizzax davlat Pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti G'allaorol tumani Bolalar va o'smirlar sport mакtabi yengil atletika sport murabbbiyi |
| 22 | Yo'lchieva Zuhra Ummatqul qizi | 19 yosh | Adabiyot yo'nalishida she'riyat | 2019-yil | Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti 1 kurs magistranti |
| 23 | Ibragimova Vazira shahrat | 26 yosh | Adabiyot yo'nalishida publitsistika | 2020-yil | O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetin 2 bosqich tayanch doktaranti |

| | | | | | |
|----|--------------------------------------|---------|---|----------|--|
| 24 | Ilhomova Sevara Davron qizi | 24 yosh | Fan yo‘nalishida Arxitektura | 2020-yil | Jizzax Politexnika institute AREM mutaxassisni |
| 25 | Imomova Dildora Shuxrat qizi | 28 yosh | Fan yo‘nalishida texnika sohasi | 2021-yil | O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi yoshlari yetakchisi, yoshlari masalalari bo‘yicha vazir maslahatchisi |
| 26 | Mamarasulova Muqaddas Abulqosim qizi | 20 yosh | Adabiyot yo‘nalishida badiiy publitsistika | 2021-yil | Jizzax davlat pedagogika universiteti chet tillar fakulteti 1-bosqichi magistranti |
| 27 | Baxodirova Sevara Baxodir qiz | 20 yosh | Adabiyot yo‘nalishida nasr, nazm badiiy publitsistika | 2022-yil | Toshkent sharqshunoslik universiteti 4-bosqich talabasi |
| 28 | Abduvalieva Aziza Farxod qizi | 16 yosh | Fa’n yo‘nalishida | 2022-yil | Toshkent Pediatriya institutining davolash ishi yo‘nalishi 2 kurs talabasi |
| 29 | Anvarbekova Charos Anvarbek qizi | 24 yosh | Ta’lim yo‘nalishida | 2023-yil | Toshkent davlat agrar universiteti 2 bosqich magistratura talabasi |
| 30 | Shokirova Samira Saloxiddin qizi | 18 yosh | Sport yo‘nalishida qilichbozlik (18 yoshida tavsiya) | 2023-yil | Chirchiq davlat pedagogika universiteti qilichbozlik fakulteti |
| 31 | Chilmurzaeva Maftuna Abdumannon qizi | 26 yosh | Adabiyotning badiiy tarjima yo‘nalishi | 2024-yil | nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishi mustaqil tadqiqotchisi |
| 32 | Xojiboeva Nigina O‘tkir qizi | 20 yosh | Fanning matematika yo‘nalishi | 2024-yil | Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy Universiteti Jizzax filiali psixologiya fakulteti iqtisodiyot yo‘nalishi 3-kurs talabasi |

Tahlilimiz qizlarning mukofotga tavsiya etilgan yili, yoshi, yo‘nalishi hamda bugungi kundagi faoliyatib ustuda o‘tkazilgan bo‘lib, quyidagi xulosalarga kelindi. Yillar kesimida:

2000 yil- 1 nafar qizimiz

2001 yil- 1 nafar

2002 yil – taqdirlanmagan

2003 yil - 2 nafar

2004 yil - 1 nafar

2005 yil -1 nafar

2006 yil- 1 nafar qizimiz

2007 yil- 1 nafar

2008 yil – 1 nafar

2009 yil - 1 nafar

2010 yil - 1 nafar
2011 yil -1 nafar
2012 yil- 1 nafar qizimiz
2013 yil- 1 nafar
2014 yil – 1 nafar
2015 yil - 1 nafar
2016 yil - 1 nafar
2017 yil -1 nafar

Statistikadan kelib chiqsak, viloyatimizga berilgan imtiyozdan to‘liq foydalanib, 2018-2024 yillar oralig‘ida 2 nafardan qizlarimiz taqdirlanga. Bu esa salohiyatli xotin-qizlarning ancha faollashganligidan darak beradi.

Yosh kesimida:

16 yosh – 1 nafar
17 yosh – 6 nafar
18 yosh – 7 nafar
19 yosh – 4 nafar
20 yosh – 5 nafar
21 yosh – 1 nafar
22 yosh - 1 nafar
24 yosh – 2 nafar
25 yosh – 1 nafar
26 yosh – 2 nafar
28 yosh – 1 nafar

Yo‘nalish kesimida:

Fa’n yo‘nalishi – 9 nafar
Sport yo‘nalishi – 2 nafar
Ta’lim yo‘nalishi – 3 nafar
Adabiyot yo‘nalishi – 12 nafar
Madaniyat yo‘nalishi – 5 nafar
San’at .Tasviriy san’at – 1 nafar

Bundan ko‘rinadiki xotin-qizlar nafaqat adabiyot, madaniyat, san’at yo‘nalishida sport, fan tarmoqlarida hjam samarali faoliyat olib bormoqda. Bunu ularning bugungi kundagi amaliy faoliyatlaridan ham ko‘rishimiz mumkin. Afsuski, viloyatimizda bugungu kunga qadar axborot texnologiyalari yo‘nalishida taqdirlangan qizlarimiz yo‘q. Ammo umid qilimizki, yurtimizdagи yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalangan axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida

yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarimiz bu mukofot sohibalariga aylanadi. Ularning IT xizmatlarini ko'rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishdagi ulushi ortadi. Buning uchun ushbu yo'nalishga qizlarni keng jalb etish, targ'ibot-tashviqot ishlarini kengaytirish lozim.

XULOSA

Xulosa o'rniда, yurtimizda taraqqiyot yo'lida keng islohatlar davri boshlandi. Oz navbatida yurt rivojida ayollarning o'rni beqiyosligi bugungi kunda sir emas.. XX asr boshlarida millat ma'rifatparvari Abdulla Avloniy: "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar", [10]- deb yozgan edi. Bu haqiqat! Shunday ekan bu jabhadagi masalani hal etmasdan taraqqiyotni tasavvur etish qiyin. Ma'lumki jamiyatimizda sharqona tarbiya ustuvorlik qiladi. Qizlarimizni ba'zi sohalarga, misol siyosiy, huquqiy, iqtisodiy hamda ilm-fan, axborot texnologiyalari yo'nalishiga jalb etish masalasi og'irroq. Shu bos yurtimizda bu kabi masalalarni hal etish borasida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Maqsad ilmli, o'ziga ishongan, o'z iqtidorini namoyon eta oladigan xotin-qizlarni shakllantirish. Shu huqtai nazardan xotin-qizlarning har bir sohaning mukammal mutaxasisi bo'lishlari, bu yo'lda ilmni puxta olishlari uchun keng imtiyozlar, imkoniyatlar yaratilyapti,. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova.M.M.. O'zbek ayollari turmush tarzida islom dini (Farg'ona vodiysi misolida). Tarix fan.fal.dokt. (PhD), diss...T.: 2022 . –B.5
2. Mirziyoev.Sh.M. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi ."Xalq so'zi". 08.03.2022.-B.1
3. PF-2326. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida. T.: 10.06.1999. <https://lex.uz>
4. "Zulfiyaxonim qizdoshlari" aniqlandi. Urganch shahar hokimligi rasmiy veb sayti. 22.10.2019
5. PQ-357. 2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. T.: 22.08.2022. <https://lex.uz>
6. PF-34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-2326-son farmoniga axborot texnologiyalari yo'nalishida alohida yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida. T.: 07.02.2024. <https://lex.uz>
7. PF-34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-2326-son

farmoniga axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish haqida. Ilova. T.: 07.02.2024. <https://lex.uz>

8. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
9. Prezident 28 nafar xotin-qizni “Zulfiya” mukofoti bilan taqdirladi. Gazeta.uz. 04.03.2024.
10. Mustafaeva.N. O‘zbekiston ilm-fani rivojida fanlar akademiyasi olimalarning hissasi: tarix va zamon. Barqaror taraqqiyotda ayollar: ilm-fan va sifatli ta’lim. III xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. 27-31.b